



“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

---

# IJTIMOIY BOSHQARUV

e l e k t r o n i l m i y j u r n a l

1/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

## **TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## **TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** (Bosh muharrir o'rinosbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimkulovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**FARFIYEV Bahromjon Atxamjanovich** – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

**ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich** – *tarix fanlari doktori, professor.*

**KARAMYAN Marietta Xachaturovna** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSLIMOV Narzulla Alixanovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**NURMATOVA Mukharram Axmedovna** – *falsafa fanlari doktori, professor.*

**NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*

**RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna** – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

**SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna** – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**SODIQOVA Shohida Marhobayevna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

## **ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

## **ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** (*Заместитель главного редактора*) – доктор педагогических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** – доктор экономических наук, профессор.

**Бегимкулов Узокбай Шоимкулович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Фарфиев Баҳромжон Атҳамдановиҷ** – доктор социологических наук, доцент.

**Ишқуватов Валикул Турдиевиҷ** – доктор исторических наук, профессор.

**Карамян Мариэтта Ҳачатуровна** – доктор психологических наук, профессор.

**Муслимов Нарзулла Алиханович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Нурматова Мукхаррам Ахмедовна** – доктор философских наук, профессор.

**Нарматов Нуриддин Соатмурадович** – доктор юридических наук, профессор.

**Рахманкулова Нилуфар Ҳоджи-Ақбаровна** – доктор юридических наук, доцент.

**Сайдивалиева Хуршида Ҳоджиакбаровна** – доктор философии юридических наук (PhD).

**Содикова Шоҳида Мархобаевна** – доктор социологических наук, профессор.

**Зоҳидов Азаматжон Азамович** – доктор экономических наук, профессор.

## **THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna** (*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

## **MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

**Begimkulov Uzokhboy Shoimkulovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Farfiyev Bakromjon Atxamjanovich** – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

**Ishkuvatom Valikhul Turdiyevich** – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

**Karamyan Marietta Khachaturovna** – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

**Muslimov Narzulla Alixhanovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Nurmatova Mukharram Akhmedovna** – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

**Narmatov Nuriddin Soatmuradovich** – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

**Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna** – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

**Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna** – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

**Sodikova Shohida Markhobayevna** – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

**Zokhidov Azamatjon Azamovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

*MAHALLA VA MENEJMENT*

<b>Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B.</b> Ta’lim va ilm-fan sohalarida xotin-qizlar rolini yanada oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba .....	4
<b>Abduramanov X., Zokirov Sh.</b> Xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorij tajribasi .....	15
<b>Xoliqova M.</b> Ijtimoiy boshqaruv kontekstida rahbarning korporativ kompetensiyalar matritsasi .....	29
<b>Norqulov H.D., Jumanov Sh.S.</b> Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari .....	40
<b>Sodiqov F.F.</b> Janubiy Koreya Respublikasida mahalliy hokimiyat boshqaruvi .....	55

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Yulchiyeva D.X.</b> Oilada barqaror muhitni ta’minlashda milliy hunarmandchilikning o‘rni.....	61
<b>Бабаджанова Н.</b> Закономерности функционирования семьи как системы .....	71
<b>Kholikulova Kh.Yu.</b> Political transformations in Uzbekistan in the field of social protection of disabled people .....	81
<b>Mambetjanov Q.Q., Ibragimov L.Z.</b> Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish mexanizmlari.....	90
<b>Arabov N.U., Nasimov D.A.</b> Xotin-qizlar kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish .....	98

*XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI*

<b>Bayjonov F.B.</b> Gender madaniyat tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish .....	104
---	-----

*IJTIMOY PSIXOLOGIYA*

<b>Nurmatov A.N.</b> Psychological impact of professional identification of medical staff on the spiritual and moral environment of the family and community.....	108
<b>Narmetova Y.K.</b> Sog‘liqni saqlash tizimida psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari .....	117
<b>Avezova D.G.</b> Autizm sindromli bolalarda kognitiv jarayonlar buzilishlarining psixologik omillari .....	126

**Xoliqova Mohira Kundibayevna,**  
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti  
bo‘lim boshlig‘i, falsafa doktori, dotsent



# IJTIMOIY BOSHQARUV KONTEKSTIDA RAHBARNING KORPORATIV KOMPETENSIYALAR MATRITSASI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy boshqaruvning dolzarb muammolari, xususan, globallashuv kontekstida korporativ menejment, zamonaviy rahbarning kasbiy kompetensiylar matritsasi tahlil qilinadi.

**Аннотация.** В статье анализируются актуальные проблемы корпоративного менеджмента, в частности, корпоративное управление в контексте глобализации, матрица профессиональных компетенций современного лидера.

**Annotation.** The article analyzes the current problems of corporate management, in particular, corporate governance in the context of globalization, the matrix of professional competencies of a modern leader.

**Kalit so‘zlar:** menejment, korporativ boshqaruv, kompetensiya, matritsa, HR menejment, moslashuv, konflikt-menejment, siyosiy intuitsiya, jamoa, sog‘lom ma’naviy muhit, timbildung.

**Ключевые слова:** менеджмент, корпоративное управление, компетенция, матрица, HR менеджмент, адаптация, управление конфликтами, политическая интуиция, коллектив, здоровый климат, тимбилдинг.

**Key words:** management, corporate governance, competence, matrix, HR management, adaptation, conflict management, political intuition, team, healthy climate, team building.

*O‘zidan mangu xotira qoldira oladigan  
insonlar uchun tug‘ilmoq chinakam baxtdir.*

**Perikl**

*Mamlakatni bir kun odilona boshqargan  
podshohning ishi 60-70 yil haj qilishdan afzaldir.*

**Hadisi sharif**

*Rahbarlar faqat davlatga emas, avvalo,  
inson va oilaga, ularning qonuniy manfaatlarini  
ta‘minlashga xizmat qilishi kerak.*

**Shavkat Mirziyoyev**

*Boshqarish – yaxshi ishlayotganlarga xalaqit  
qilmaslikdir.*

**Petr Kapitsa**

*Ijtimoiy boshqaruv  
shaxslar, ijtimoiy  
guruh, jamoaning  
maqsad-vazifalarini  
samarali  
bajarishga oid  
faoliyatning  
izchilligini  
ta‘minlash  
maqsadida amalga  
oshiriladigan  
ijtimoiy  
ahamiyatga ega  
faoliyatdir.*

*Qonunlar yomon bo‘lsa ham, yaxshi amal-  
dorlar bilan davlatni boshqarsa bo‘ladi. Ammo  
amaldorlar yomon bo‘lsa, eng yaxshi qonunlar  
ham ish bermaydi.*

**Otto fon Bismark**

Eksponensial taraqqiyot, global siyosiy-ijtimoiy tendensiyalar, keng miqyosda integratsiya, barcha sohalarda yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, innovatsiyalarni joriy qilish – **zamonaviy menejment** – **ijtimoiy boshqaruv tizimi** oldiga ham yangi talablarni qo‘ymoqda.

Mazkur kontekstda innovatsion tafakkurga ega, tashabbuskor, xarizmatik rahbarlarni tayyorlash tizimini yaratish yangilanayotgan O‘zbekistonning strategik vazifalaridan hisoblanadi.

**Ijtimoiy boshqaruv** shaxslar, ijtimoiy guruh, jamoaning maqsad-vazifalarini samarali bajarishga oid faoliyatning izchilligini ta‘minlash maqsadida amalga oshiriladigan ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatdir.

Strategik maqsad va natijaga erishish uchun muayyan ijtimoiy guruhning o‘zaro ta’siri, mehnat iyerarxiysi, rollar taqsimotini muvofiqlashtirish va tartibga solishni nazarda tutadigan ijtimoiy boshqaruv jamiyatlar, mamlakatlar hamda ijtimoiy hayotning barcha sohalariga oid universal konsept hisoblanadi.

Zamonaviy korporatsiyalar boshqariladigan ijtimoiy tuzilma ekanligi e’tiborga olinsa, ular faoliyatini samarali tashkil qilishda korporativ boshqaruvning quyidagi eng muhim tamoyillarini tatbiq etish maqsadga muvofiqligi anglashiladi:

- strategik rejalashtirish;
- maqsad va vazifalarni aniq belgilash;
- to‘g‘ri vaadolatli qarorlar qabul qilish;
- tizimli tahlil;
- HR menejment;
- hamkorlik;
- taym-menejment;
- prioritetlarni to‘g‘ri tanlash;
- korporativ madaniyat;
- moliyaviy resurslarni to‘g‘ri taqsimlash;
- mehnat resurslarini to‘g‘ri taqsimlash, umumiy strategik manfaatlar yo‘lida harakat qiluvchi kuchli jamoani shakllantirish;
- boshqaruvga zamonaviy uslublarni, innovatsiyalarni tatbiq etish;
- har bir xodimning o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga sharoit yaratish;
- kadrlar professionalizmi va kompetentligini rivojlantirish;
- kadrlar tarkibini tizimli yangilab, yoshartirib turish;
- korxona imijini shakllantirish;
- KPI (samaradorlikning bazaviy ko‘rsatkichlari)ni baholash;
- ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etish.

Har bir tashkilotning samarali faoliyatida jamoa taqdiri uchun mas’uliyatni his etadigan, o‘z vaqtida va to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, qat’iyatli, adolatparvar, xarizmatik liderlarning roli juda muhim.

**Adolatli boshqaruv, adolatli jamiyat** g‘oyasi azaldan ijtimoiy tafakkurning diqqat markazida bo‘lgan. **Platon, Aristotel, Erazm Rotterdamskiy, Forobiy, Alisher Navoiy, Volter, Russo, Sharl Monteske<sup>1</sup>, Jon Lokk<sup>2</sup>, Nikollo Makkiavelli<sup>3</sup>, Tommazo Kampanella, Tomas Gobbs<sup>4</sup>, Maks Veber<sup>5</sup>** asarlarida boshqaruv qarorlarini qabul

*Har bir  
tashkilotning  
samarali  
faoliyatida jamoa  
taqdiri uchun  
mas’uliyatni his  
etadigan, o‘z  
vaqtida va to‘g‘ri  
qaror qabul qila  
oladigan, qat’iyatli,  
adolatparvar,  
xarizmatik  
liderlarning roli  
juda muhim.*

<sup>1</sup> Раймон Арон. Часть первая. Основоположники. Шарль Луи Монтескье // Этапы развития социологической мысли = Les Étapes de la pensée sociologique. (1967) / общ. ред. и предисл. П.С.Гуревича. – Москва: Издательская группа «Прогресс» – «Политика», 1992. – 608 с.

<sup>2</sup> Яковлев А.А. Завещание Джона Локка, приверженца мира, философа и англичанина. – Москва: Изд-во ин-та Гайдара, 2013. – 432 с.

<sup>3</sup> Макиавелли Н. Государь. Рассуждения о первой декаде Тита Ливия. – Ростов-на-Дону, 1998. – С. 68.

<sup>4</sup> Гоббс Т. Левиафан, или Материя, форма и власть государства церковного и гражданского // Соч.: В 2 т. – Москва, 1991.

<sup>5</sup> Вебер М. Избранные произведения / Пер. с нем.; сост., общ. ред. и послесл. Ю.Н.Давыдова; предисл. П.П.Гайденко; comment. А.Ф.Филиппова. – Москва: Прогресс, 1990.

qilish, siyosiy iroda, hokimiyatni adolatli taqsimlash, rahbar ma’naviyati masalalari ilmiy-falsafiy talqin qilinadi.

Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatni, hokimiyat bo‘linishi tamoyili nazariyotchilaridan biri **Jon Lokk** davlatning kelib chiqishini barcha fuqarolarning roziligi bilan tuzilgan o‘zaro kelishuv faraziga asoslaydi, umumiy erkinlik, rahbar adolatparvarligi, **insonlar cheksiz hokimiyatning o‘zboshimchalik va injiqligiga emas, faqat qonunlarga bo‘ysunishi**, despotizm holatida har kim o‘z huquqini himoya qilish erkinligining buzilishi, suveren huquqlar muammolarini tahlil qiladi<sup>6</sup>.

Fransuz adibi, Nobel mukofoti sohibi Antuan de Sent-Ekzyuperining **“Kichik shahzoda”** asarida bir ibratlì dialog bor:

*“ – Bugun  
(yondaftarchasiga  
qarab olib) kech  
soat yettidan  
qirq minut  
o‘tganda bo‘ladi.  
O‘shanda sen  
mening buyrug‘im  
qanday aniq  
bajarilishining  
guvohi bo‘lasan.”*

– Agar men bir generalimga kapalak bo‘lib guldan gulga qo‘nishni yoki tragik asar yozishni yoki bo‘lmasa dengiz chaykasiga aylanishni buyursam va u general mening buyrug‘imni bajarmasa, kim aybdor bo‘ladi, umi yoki men?

– Siz, janobi oliylari, – bir daqiqa ham ikkilanmasdan javob berdi kichik shahzoda.

– Mutlaqo to‘g‘ri, dedi shoh. – Har kimdan uning qobiliyatiga qarab so‘rash kerak. Agarda sen o‘z xalqingga dengizga tashlashni buyursang, u senga qarshi isyon ko‘taradi. Men xalqimdan itoatni talab qilishga haqliman, negaki mening buyruqlarim oqilonadir.

- Quyoshning botishi-chi?
- Quyoshning botishi ham bo‘ladi. Men quyoshdan botishini talab qilaman, lekin undan oldin zarur shart-sharoit bo‘lishini kutib turaman. Illo hukmdorning oqilligi ham shundadir.
- Zarur shart-sharoit qachon paydo bo‘ladi?
- Bugun (yondaftarchasiga qarab olib) kech soat yettidan qirq minut o‘tganda bo‘ladi. O‘shanda sen mening buyrug‘im qanday aniq bajarilishining guvohi bo‘lasan.

**Zamonaviy rahbarning muhim kompetensiyalar matritsasiga quyidagilar kiradi:**

- liderlik;
- o‘zini boshqarish;
- konflikt-menejment, nizolarni boshqarish;
- insonlarni tinglay olish;
- tizimli fikrlash;
- muloqot kompetensiyalari;
- g‘oyalar generatsiyasi;

<sup>6</sup> Джон Локк. «Второй трактат о правлении» (Опыт об истинном происхождении, области действия и цели гражданского правления).

- maqsadni to‘g‘ri shakllantirish;
- vakolatlarni delegatsiya qilish;
- analitik ko‘nikmalar;
- siyosiy-huquqiy bilimlar;
- ma’naviy-axloqiy bilimlar;
- mas’uliyatni zimmasiga ola bilish;
- prognozlash;
- mehnat resurslarini to‘g‘ri taqsimlash;
- shaxsiy xarizma;
- siyosiy intuitsiya.

Samarali boshqaruvning muhim omillaridan biri barcha tomonidan qabul qilingan aniq maqsadlar qo‘yish va uni amalga oshirishni rejalshtirishdir. Rejalar direktiv, operativ, taktik, strategik kabi turlarga bo‘linadi.

**Strategik rejalshtirish** – korporativ strategiya<sup>7</sup>, faoliyatning maqsadlarini, buning uchun zarur vositalarni aniqlash, maqsadlarga erishish usullarini ishlab chiqish, tashkilotning perspektiv rivojlanishini prognozlash, tashkilot a’zolarining sa’y-harakatlarini umumiylashtirishga yo‘naltirish. Ishni rejalshtirish vazifalarni belgilash, faoliyatni muvofiqlashtirish, samaradorlikni aniqlash, muammolarni o‘z vaqtida hal etish, imkoniyatlarni safarbar etish, shuningdek, mehnat resurslarini to‘g‘ri taqsimlashga yordam beradi. Rejada vazifalarning muddatlari, ijrochilarini va natijalari aniq ko‘rsatilishi kerak.

Strategik rejalshtirish tashkilotning missiyasidan (umumiyyiy siyosat) kelib chiqib strategiyalar to‘plamini ishlab chiqish, ularni vaqt-makon kontinuumida taqsimlash, tashkilotning muvaffaqiyat salohiyatini shakllantirish va ularni amalga oshirish ustidan strategik nazoratni ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Boshqaruvda **rahbarning shaxsiy fazilatlari** katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish, boshqalarga ta’sir ko‘rsata olish siyosiy iroda, ijtimoiy intellekt, ma’naviy-axloqiy bilimlarni talab qiladi.

Shu o‘rinda, ulug‘ sohibqiron, markazlashgan davlat asoschisi, taktik va strategik bilimlar sohibi **Amir Temurning** boshqaruvga oid fikrlarini keltirish joiz:

**“Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o‘zimga rom qildim.  
Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo‘lishga intildim.”**

*Strategik  
rejalashtirish  
tashkilotning  
missiyasidan  
(umumiyyiy siyosat)  
kelib chiqib  
strategiyalar  
to‘plamini ishlab  
chiqish, ularni  
vaqt-makon  
kontinuumida  
taqsimlash,  
tashkilotning  
muvaqqafiyat  
salohiyatini  
shakllantirish va  
ularni amalga  
oshirish ustidan  
strategik nazoratni  
ta’minlashni o‘z  
ichiga oladi.*

<sup>7</sup> Менеджмент корпорации и корпоративное управление / А.Н.Асаяул, В.И.Павлов, Ф.И.Бескиеръ, О.А.Мышко. – Санкт-Петербург: Гуманистика, 2006.

*Men sifatlarimning eng avvalgisi deb beg‘arazlikni tushundim. Hammaga bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmadim, boyni kambag‘aldan ustun qo‘ymadim.*

*Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonlariga topshirdim. Kim menga do‘slik qilgan bo‘lsa, do‘sligi qadrini unutmadi va unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko‘rsatdim”.*

Tashkilotning samarali faoliyatida, kadrlar qo‘nimsizligining oldini olishda **korporativ madaniyat, ijobiy sog‘lom muhit** katta ahamiyatga ega.

**Korporativ madaniyat – jamoaning barcha a’zolari tomonidan qabul qilingan madaniy atributlar, qadriyatlar tizimi va xulq-atvor normalarining umumiylasosini belgilab beradigan, samarali muloqot va networkingni ta’minlash, korporativ faoliyatni tartibga solishning strategik vositasi sifatida tavsiflanadi.**

**Korporativ madaniyat** – jamoaning barcha a’zolari tomonidan qabul qilingan madaniy atributlar, qadriyatlar tizimi va xulq-atvor normalarining umumiylasosini belgilab beradigan, samarali muloqot va networkingni ta’minlash, korporativ faoliyatni tartibga solishning strategik vositasi sifatida tavsiflanadi.

Shu jihatdan olganda, jamoaning har bir a’zosi uchun birdek muhim bo‘lgan umumiylasosini qadriyatlar tizimini, korporativ madaniyat normalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu normalar sifatida quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- o‘zaro hurmat, o‘zaro ishonch, o‘zaro yordam;
- muammolar yechimini birgalikda izlash;
- yaxshi an’analarni qadrlash;
- humor va ko‘tarinki kayfiyat;
- to‘g‘ri va ochiq munosabat;
- shaxsiy kamolotga intilish;
- xodimlardagi professionalizmni, tashabbuskorlikni qo’llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, motivatsiya tizimi<sup>8</sup>.

**Tashkilot samarali faoliyatining asosiy manbayi** – bu umumiylasosini strategik manfaatlar yo‘lida harakat qiluvchi jamoa, **mehnat resurslari**. Kuchli va uyushgan jamoani shakllantirish rahbardan katta mahorat hamda kasbiy intuitsiyani talab qiladi. Bunda har bir xodim tomonidan o‘zining o‘rnini aniq his qilishi, o‘zaro ishonch va samimiyyat juda muhim.

Jamiyatda har qanday sohaning rivojlanishi **kadrlar bilan ishslash tizimini** muvaffaqiyatli boshqarishga bog‘liq.

**HR menejment** (inson resurslarini boshqarish) – bu muayyan jamoaning kadrlar siyosatini shakllantirish, kadrlarni to‘g‘ri tanlash, joy-joyiga qo‘yish, ular bilan ishslash tizimi<sup>9</sup>.

<sup>8</sup> Цыренова А.А. Менеджмент: Учебно-методическое пособие. – Улан-Удэ: Издательство ВСГТУ, 2006. – С. 114.

<sup>9</sup> Рогожин М.Ю. Управление персоналом. 100 вопросов и ответов о самом насущном в современной кадровой работе: практическое пособие. – Берлин: Директ-Медиа, 2014. – 176 с.

### Zamonaviy HR quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tashkilotning kadrlar siyosatini shakllantirish;
- rekrument, head-hunting – kerakli kadrlarni izlab topish, tanlash va joy-joyiga qo‘yish;
- jamoada sog‘lom psixologik muhitni saqlash;
- xodimlar mehnatini tashkil etish;
- kadrlar samaradorligini ta’minlash;
- xodimlarni ish jarayoniga moslashtirish;
- xodimlarni kasbiy kompetensiya va zarur ko‘nikmalarga o‘rgatish;
- motivatsiya, kompensatsiya, imtiyozlar tizimini ishlab chiqish;
- kadrlar zaxirasini yaratish;
- kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;
- xodimlarning malakasini oshirish, professional qo‘llab-quvvatlash;
- onboarding;
- xodimlarni rag‘batlantirish.

**Onboarding** – yangi xodimni tashkilotga va uning madaniyatiga qo‘shilish jarayoni, xodimlar adaptatsiyasi, kasbiy sotsializatsiya. Onboarding yangi xodimning tashkilotning samarali a’zosi va insayderiga aylanishi uchun zarur bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘lishi, sohaga oid korporativ o‘qish, timbildung, kadrlar malakasini oshirish faoliyatini yo‘lga qo‘yishni nazarda tutadi.

**Moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash** tashkilotning rivojlanish maqsadlariga mos ravishda moddiy manbalarning yetarli hajmini ta’minlash, moliyaviy salohiyatni mohirona boshqarish va shakllantirish, strategik maqsadlarda foydalanishda zaruriy proporsionallikni ta’minlashdir.

XXI asr ko‘nikmalar yo‘lida hamkorlik tashkiloti (**Partnership for 21st Century Skills**) tomonidan XXI asrda insoniyatning barcha sohada muvaffaqiyatlari faoliyati uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar qatoridan *tolerantlik, konflikt-menejment, nizoni samarali boshqarish* kabilalar ham o‘rin olgan<sup>10</sup>.

**Konflikt-menejment, shaxslararo nizolarni samarali boshqarish** XXI asrda uzlusiz shaxsiy va kasbiy kamolot hamda o‘zgarib, rivojlanib borayotgan dunyoning talablariga moslashishning samarali shakllaridan biridir. **Xristof Besemer<sup>11</sup>, Vendi Suzuki (Wendy Suzuki)<sup>12</sup>, Liza**

*Moliyaviy  
resurslarni  
samarali  
taqsimlash  
tashkilotning  
rivojlanish  
maqsadlariga mos  
ravishda moddiy  
manbalarning  
yetarli hajmini  
ta’minlash,  
moliyaviy  
salohiyatni  
mohirona  
boshqarish va  
shakllantirish,  
strategik  
maqsadlarda  
foydalanishda  
zaruriy  
proporsionallikni  
ta’minlashdir.*

<sup>10</sup> [www.21stcenturyskills.org](http://www.21stcenturyskills.org).

<sup>11</sup> Христофф Бесемер. Медиация. Посредничество в конфликтах. – Калуга: Духовное познание, 2004. – 179 с.

<sup>12</sup> Suzuki V. Странная девочка, которая влюбилась в мозг (2-е изд.) – Москва: Alpina Publisher, 2017, – 302 с.

**Parkinson<sup>13</sup>, Rojer Fisher (Roger Fisher), Uilyam Yuri (William Ury)<sup>14</sup>, Anita fon Xertel<sup>15</sup>, Garold Abramson<sup>16</sup>** tadqiqotlarida shaxs uyg‘un rivojlanishining omillari, nizo va inqirozlarni samarali bartaraf etish orqali shaxsiy rivojlanish muammolari tadqiq qilingan.

Nizo (fixtilof, nifoq, mojaro, ziddiyat, qarama-qarshilik, kolliziya, konflikt) zamонавиy dunyoning ajralmas elementi hisobланади. Nizolar ijtimoiy hayotning etnik, irqiy, milliy, oilaviy, korporativ mehnat, tijorat, biznes, g‘oyaviy-mafkuraviy munosabatlarga oid masalalarida yuzaga kelishi mumkin.

**Nizo zamонавиy dunyoning ajralmas elementi hisobланади.  
Nizolar ijtimoiy hayotning etnik, irqiy, milliy, oilaviy, korporativ mehnat, tijorat, biznes, g‘oyaviy-mafkuraviy munosabatlarga oid masalalarida yuzaga kelishi mumkin.**

Ijtimoiy nizo va ziddiyatlar nizo subyektlari o‘rtasidagi to‘qnashuvlar, shu bilan birga, turli xil ijtimoiy guruhlarning manfaatlari, maqsadlari, qadriyatlar qarama-qarshiligi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy ziddiyatlarning avj olishidir. Zamонавиy nazariy sotsiologiyaning asoschilaridan biri **Telkott Parsonsning** (Talcott Parsons) fikriga ko‘ra, *nizo ijtimoiy determinantlarga asoslangan, jamiyat esa o‘z a’zolarining konsensusi hamda ijtimoiy tizim muvozanatiga asoslangan yaxlit tizimdir*<sup>17</sup>. Ijtimoiy ziddiyatlar ijtimoiy tizim disfunksiyasining indikatoridir.

Zamонавиy jamiyatlarda nizo jamiyat hayotining uzviy ko‘rinishidir. Masalan, **Germaniyada** faoliyat olib boruvchi yirik kompaniyalarda nizo predmeti bilan ishlaydigan maxsus bo‘limlar tashkil etilgan. Uning vazifasi ma’muriy, ijtimoiy-mehnat nizolarini o‘z vaqtida, boshlang‘ich fazasida bartaraf etishdan iborat. Tomonlarning yuristlari yuzaga kelgan konfliktni o‘zaro muzokara yo‘li bilan hal qilish choralarini ko‘radi (**collaborative law, procedure collaborative**).<sup>18</sup>

Har qanday nizoli vaziyatning markazida insonning boshqa insonlar bilan munosabatlarda huquqqa ega ekanligi g‘oyasi yotadi. Ushbu g‘oya

<sup>13</sup> Лиза Паркинсон. Семейная медиация. 2-е изд. – Москва: МЦУПК, 2016.

<sup>14</sup> Roger Fisher, William Ury. Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In. 1981, 1988. Фишер Р., Юрий У. Путь к согласию или переговоры без поражения. – Перевод с английского: А.Горелова; Предисловие: В. А. Кременюк. – Москва, 1992. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. – 10.02.2012.

<sup>15</sup> Хертель, Анита фон. Профессиональное разрешение конфликтов: Медиативная компетенция в Вашей жизни. – Санкт-Петербург: Изд-во Вернера Регена, 2007. – 272 с.

<sup>16</sup> Гарольд Абрамсон. Сопровождение сторон в процедуре медиации. – Москва: МЦУПК, 2013. – 560 с.

<sup>17</sup> Сунами А.Н., Стребков А.И. Концепт «конфликт ценностей» в зарубежной и отечественной конфликтологии // Конфликтология, 2016. – № 4. – С. 235-261.

<sup>18</sup> М.Холикова. Медиация низоларни ҳал этиш усули сифатида. – Тошкент, 2021 й.

shaxsga xos xususiyatlar, mavqe, pozitsiyalar mavjudligiga ko‘ra, “adolatli” munosabatga loyiqlik masalasiga borib taqaladi. Nizo nafaqat manfaatlar va ziddiyatlar to‘qnashuvi, balki “muayyan huquqlarga egalik”da (**entitlement**) raqobatning namoyon bo‘lishidir<sup>19</sup>.

Zamonaviy ko‘rinishdagi nizolarni hal qilishning samarali konsepsiyalari XX asrning o‘rtalarida AQSHda tarkib topgan. 1981-yilda Garvard huquq maktabi professorlari **Royer Fisher** va **Uilyam Yuri** muallifligida nashr etilgan “**Getting to Yes**” nomli kitobda tadqiqotchilar tomonidan nizo konsepsiysi uchun asos bo‘lgan nazariya asoslab berildi. Ushbu nazariya “birgalikda harakat” deb ham yuritiladi, u pozitsiyalar va manfaatlarning farqlanishiga asoslanadi. Muzokaralar jarayonida tomonlarning manfaatlarini aniqlash kerak, bu esa kelishuvga erishishga sezilarli darajada yaqinlashtiradi. Vositachilik jarayonida qabul qilingan qaror o‘zaro manfaatli bo‘ladi va unda g‘olib ham, mag‘lub ham yo‘q. Muzokaralarning bu turi tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, to‘rtta asosiy elementga tayanadi: odamlar, qiziqishlar, variantlar, mezonlar<sup>20</sup>.

**Nizolarni hal qilish madaniyat** davlat xizmatiga oid huquqiy madaniyatning bir qismidir, uning sifati jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning yechimiga xizmat qiladi hamda fuqarolarning hokimiyat organlariga, qonunlar va qonunosti hujjatlariga bo‘lgan ishonchi va hurmatini belgilaydi.

**Konflikt-menejment zamonaviy rahbarning muhim kompetensiyasidir.** Liderning kompetentlik darajasi ko‘pincha nizolarni hal qilish vazifasini o‘z zimmasiga olishida namoyon bo‘ladi. Nizolarni samarali boshqarish – bu ziddiyatli vaziyatni tugatishga olib keladigan harakatlar. Bundan tashqari, bunday harakatlar natijasida yangi nizoli vaziyatlar yuzaga kelmasligi kerak. To‘qnashuvni vaziyat darajasida o‘zlashtirish variantlaridan biri – mavzu bilan ishslash strategiyasi, deb nomlanadi. Ushbu strategiyaning mohiyati mazkur formulada ifodalanadi: “**Agar nizoni bartaraf qilmoqchi bo‘lsangiz – uning sababini olib tashlang.**”

Muammoga turli nuqtayi nazardan yondashish qobiliyati, vaziyatdan xulosa chiqarishni o‘rganish, boshqalarni tushunishga intilish, noverbal signallarga e’tibor qilish, humor tuyg‘usi har qanday nizoni muvaffaqiyatli

**Konflikt-menejment zamonaviy rahbarning muhim kompetensiyasidir.**  
**Liderning kompetentlik darajasi ko‘pincha nizolarni hal qilish vazifasini o‘z zimmasiga olishida namoyon bo‘ladi.**

<sup>19</sup> <https://www.mondaq.com/uk/arbitration-dispute-resolution/158304/refusal-to-mediate-affects-costs-entitlement/>

<sup>20</sup> Roger Fisher, William Ury. Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In. 1981, 1988. Фишер Р., Юри У. Путь к согласию, или переговоры без поражения. – Перевод с английского: А.Горелова; Предисловие: В.А. Кременюк. – Москва, 1992. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. 10.02.2012.

hal qilish, vaziyat ustidan g‘alaba qozonish, stresslarni kamaytirish, negativ tuyg‘ularni yo‘qotishga yordam beradi.

Shunday qilib, mamlakatimizda davlat xizmati tizimini takomillashtirish sohasidagi ma’muriy islohotlarning samaradorligi rahbarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, professional kompetensiyalar, shaxsiy fazilatlari va manfaatlarining davlat manfaatlari bilan uyg‘unligiga bog‘liq.

Mamlakatimizning davlat boshqaruv tizimida menejment va ijtimoiy boshqaruvga oid muammolarni tahlil qilishda zamonaviy boshqaruv, liderlik bilan bog‘liq ilmiy-nazariy konsepsiya va qarashlar, falsafiy ta’limotlar muhim nazariy va amaliy asos sifatida xizmat qiladi (Druker<sup>21</sup>, Ansov<sup>22</sup>, Veber<sup>23</sup>).

Boshqaruv tizimida ijtimoiy-ma’naviy barqaror muhitni yaratishda korporativ menejment, andragogika, ijtimoiy pedagogika, boshqaruv psixologiyasi uslublaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Haqiqiy yutuqqa erishish uchun qadriyatlarni e’lon qilishning o‘zi yetarli emas, ularni korporativ boshqaruvga izchil tatbiq etish zarur.

Yuqorida zamonaviy boshqaruv, tashkilot faoliyatini samarali tashkil etishning ba’zi jihatlariga to‘xtaldik. Ularni to‘g‘ri anglash, qabul qilish, menejmentga ularni tatbiq etish boshqaruvda ijobiy yutuqlarni qo‘lga kiritishga asos bo‘ladi.

*Mamlakatimizda  
davlat xizmati  
tizimini  
takomillashtirish  
sohasidagi  
ma’muriy  
islohotlarning  
samaradorligi  
rahbarning kasbiy  
tayyorgarlik  
darajasi,  
professional  
kompetensiyalar,  
shaxsiy fazilatlari  
va manfaatlarining  
davlat manfaatlari  
bilan uyg‘unligiga  
bog‘liq.*

<sup>21</sup> Друкер П. Практика менеджмента. – Москва: Вильямс, 2000. – С. 86-400.

<sup>22</sup> Ансофф И. Новая корпоративная стратегия. – Санкт-Петербург: Питер Ком, 1999. – 416 с.

<sup>23</sup> Вебер М. Избранные произведения / Пер. с нем.; сост., общ. ред. и послесл. Ю.Н.Давыдова; предисл. П.П.Гайденко; comment. А.Ф.Филиппова. – Москва: Прогресс, 1990.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Раймон Арон. Часть первая. Основоположники. Шарль Луи Монтескье // Этапы развития социологической мысли. *Les Étapes de la pensée sociologique.* (1967) / общ. ред. и предисл. П.С.Гуревича. – Москва: Издательская группа Прогресс – Политика, 1992. – 608 с.
2. Яковлев А.А. Завещание Джона Локка, приверженца мира, философа и англичанина. – Москва: Изд-во ин-та Гайдара, 2013. – 432 с.
3. Макиавелли Н. Государь. Рассуждения о первой декаде Тита Ливия. – Ростов-на-Дону, 1998. – С. 68.
4. Гоббс Т. Левиафан, или Материя, форма и власть государства церковного и гражданского // Соч.: В 2 т. – Москва, 1991.
5. Вебер М. Избранные произведения / Пер. с нем.; сост., общ. ред. и послесл. Ю.Н.Давыдова; предисл. П.П.Гайденко; коммент. А.Ф.Филиппова. – Москва: Прогресс, 1990.
6. Джон Локк. «Второй трактат о правлении» (Опыт об истинном происхождении, области действия и цели гражданского правления).
7. Менеджмент корпорации и корпоративное управление / А.Н.Асаул, В.И.Павлов, Ф.И.Бескиерь, О.А.Мышко. – Санкт-Петербург: Гуманистика, 2006.
8. Цыренова А. Менеджмент: Учебно-методическое пособие. – Улан-Удэ: Издательство ВСГТУ, 2006. – С. 114.
9. Рогожин М. Ю. Управление персоналом. 100 вопросов и ответов о самом насущном в современной кадровой работе: практическое пособие / М.Ю. Рогожин – Берлин: Директ-Медиа, 2014. – 176 с.
10. Сунами А.Н., Стребков А.И. Концепт «конфликт ценностей» в зарубежной и отечественной конфликтологии // Конфликтология, 2016. – № 4. – С. 235–261.
11. Холиқова М. Медиация низоларни ҳал этиши усули сифатида. – Тошкент, 2021.
12. <https://www.mondaq.com/uk/arbitration-dispute-resolution/158304/refusal-to-mediate-affects-costs-entitlement/>.
13. Roger Fisher, William Ury. Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In. 1981, 1988. Фишер Р., Юри У. Путь к согласию, или переговоры без поражения. – Перевод с английского: А. Горелова; Предисловие: В.А.Кременюк. – Москва, 1992. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. 10.02.2012.
14. Друкер П. Практика менеджмента. – Москва: Вильямс, 2000. – С. 86-400.
15. Ансофф И. Новая корпоративная стратегия. – Санкт-Петербург: Питер Ком, 1999. – 416 с.

# **IJTIMOIY BOSHQARUV СОЦИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ SOCIAL MANAGEMENT**

*elektron ilmiy jurnal*  
*электронный научный журнал*  
*electronic scientific journal*

**1/2022**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.*

---

**MUASSIS:**  
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**  
**Razzakova N., Sobirova E.**  
**Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizayner: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 12.02.2022.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16  
Nashriyot bosma tabog‘i 7,8.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.